ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 338 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Nuriddinovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

Transformational School Leadership and Teacher Performance: A Narrative Literature Review 127
Nilufar Buriyeva Anvar kizi, Axatov Aminjon Tohir ugli,
Sodiqova Marziyaxon Botirjon kizi, Lutfullayeva Moxistara Xayrullo kizi

Pedagogical Model for Improving the Methodological Competence of Future History Teachers Based on Digital Historical Sources 133
Otegenov Berdibay Menglibaevich

Tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va ertakterapiya imkoniyatlari 136
Qosimova Muattarxon Shokirjon qizi

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik mahorat, refleksiv va innovatsion yondashuvning integratsiyasi 140
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna

Xorijiy tajribalar asosida maktab ta'lim mazmunini takomillashtirish 146
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Teshayeva Toxira Inomjonovna

Pedagogik muhandislikning metodologik asoslari, kategoriyaviy apparati va yondosh ilmiy-pedagogik yo'nalishlar bilan o'zaro aloqadorligi 151
Nasrullayeva Fatima Azatovna

Рефлексивная подготовка будущих воспитателей к личностно ориентированному взаимодействию с дошкольниками 160
Бозорова Зухра Жураевна

Bo'lajak tarbiyachilarning tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni 165
Xazratkulova Gulyora Tojiboyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili ta'limini loyihalash kompetensiyasini metakognitiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi 169
Raupova Navbahor Bahriddinovna

Kursant va talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish va ekstremal sharoitlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari 174
Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich

Talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati 179
Sharipova Guzal Sodiqovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining matematik tasavvurlarini mental yondashuv asosida takomillashtirish: nazariy-metodik sharh 185
Parpiyeva Mohinur Baxtiyor qizi

STEAM yondashuvi asosida fizika laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi 189
Artikov Abdukaxor

"Korpus detektori" mashqlar tizimi: tuzilishi, bosqichlari va qo'llash metodikasi 196
Bahronov Nodirbek Aliyevich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondashuv (EGRA-U diagnostikasi asosida) 199
Ne'matova Diyora Baxodir qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ona tili darslarida hamkorlik texnologiyasidan foydalanishning mavjud holati va metodik muammolari 205
Usmonova Yulduz Faxriddin qizi

Grammatik tarjima metodida ona tilidan foydalanishning didaktik xususiyatlari 210
Erkinova Madina Komil qizi

Talabalarda ta'limiy kommunikativlikni rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari 214
Babayeva Maxfuza Abduvaitovna, Ismoilov Bobur Toxirovich

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi refleksiv kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish darajalari 218
Bomurodova Gulhayo Jumayevna

Masalalarni tenglama tuzish yordamida yechimini qurishga o'rgatish metodikasi 223
Ismoilov Bobur Toxirovich, Babayeva Maxfuza Abduvaitovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash mazmunida argumentatsion nutq: darsliklar, o'quv reja va oliy ta'lim adabiyotining kontent-tahlili 229
Mamatova Marg'uba Ummatqul qizi

Основы паллиативной помощи педагогическая поддержка детей, получающих паллиативную помощь 233
Жузбаев Нурлан Урал угли, Хакимова Гульшода Абдусаламовна

"Pedagogikaning pragmatik aspektlari" modulini kreativ yondashuv asosida o'qitish modeli va ingliz tilidagi o'quv materiallarini tanlash mezonlari 237
Meliqo'ziyeva Zarnigorxon Ikromjon qizi

Gospital sharoitida turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari 242
S. M. Umarova

Harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyat davomida hissiy kuyish (emotsional burnout) sindromining ijtimoiy-psixologik psixoprofilaktikasi 246
Tursunov Kamariddin G'ulomovich

Использование подходов геймификации при обучении иностранному языку детей 5-6 лет 250
Курбанова Назира Низомиддиновна

Ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilarda tiflotexnik vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish metodlari 257
Astanova Zumradxon Toxirovna

O'quvchilar xulq-atvoridagi og'ishish ilmiy tadqiqotlar talqini asosida 262
Azimjonova Rushana Rashid qizi

Образ сильной узбекской женщины в творчестве Зульфии 267
Аскарова Наргиза Абдивалиевна, Усманова Самира Зафаровна

Inklyuziv guruhlarda differensiallashtirilgan yozma topshiriqlar tizimini loyihalash tamoyillari 271
D. X. Saydazimova

Maktabgacha ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish va tarbiyachining kreativ kompetentligini oshirish metodlari 275
Odilova Sitora Ergash qizi

Milliy qadriyatlarga asoslangan matnlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlashini notiqlik faoliyati orqali rivojlantirish 281
Ziyodullayeva Zuhro Faxriddin qizi

Raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchining refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish modeli 286
Magzumova Lola Turakulovna

Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limda seldan foydalanishga tayyorlash muammosining ijtimoiy va metodik qatlamlari 292
Sayfullayeva Ismigul Qodir qizi

Ichki ishlar xodimlarida koping-strategiyani shakllantirish kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli ta'minlovchi omil sifatida 296
Aliboyev Himaydin Fayzulla o'g'li

Psixologik holatni baholash asosida differensial mashqlar orqali badmintonchilarning koordinatsion va texnik tayyorgarligini rivojlantirish 299
Beknazarov Raxat Axmet og'li

Oliy ta'limda biotexnologiya fanini o'qitishning zamonaviy pedagogik asoslari 302
Jumabayeva Aygul Kuatovna, Ametov Yakub Idrisovich

Dialogik nutq o'qitish metodikasining shakllanishi 307
Xamidullayeva Fotima Adxam qizi

Алгоритм развития управленческой компетентности будущих учителей русского языка и литературы на основе обратной связи и коррекции педагогических решений 313
Акмалова Дилдора Тохировна

Эффективные методы развития икт-компетентности педагогов в цифровой образовательной среде... 319
Каримова Наргизахон Яхёевна

Qadimgi Misr va Gretsiya olimlarining muhandislik grafikasi fani yuzasidan izlanishlari 322
Ergasheva Shohista Anvar qizi

Предметно-языковые задания на уроках русского языка в начальной школе Узбекистана..... 324
Худжамова Хуснора Диёр кизи

Musiqa ta'limi dars mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari 329
Tuxtasinov Abror Rustamovich

Developing Creative Competence During Pedagogical Practice: an Integrated Model for Future English Language Teachers..... 332
Mukhtorov Mukhiddin Mansur o'g'li



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INKLYUZIV TA'LIMDA SELDAN FOYDALANISHGA TAYYORLASH MUAMMOSINING IJTIMOIY VA METODIK QATLAMLARI

Sayfullayeva Ismigul Qodir qizi
Osiyo xalqaro universiteti
"Pedagogika nazariyasi" kafedrasi dotsenti v.b. (PhD)
Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti
ORCID ID: 0000-0002-2571-9383

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL - Social and Emotional Learning) yondashuvidan samarali foydalanishga tayyorlash muammosining ijtimoiy va metodik jihatlari yoritiladi. Inklyuziv ta'lim muhitida har bir o'quvchining individual xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish, o'zaro hurmat, empatiya, ijtimoiy hamkorlik hamda emotsional barqarorlikni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati asoslanadi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda o'zini anglash, his-tuyg'ularni boshqarish, mas'uliyatli qaror qabul qilish, samarali muloqot o'rnatish va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, SEL, ijtimoiy-emotsional ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy kompetensiya, emotsional intellekt, pedagogik metodika, empatiya, refleksiya, teng imkoniyatlar.

Abstract: This article explores the social and methodological aspects of preparing prospective teachers to use the Social and Emotional Learning (SEL) approach effectively in inclusive education settings. It highlights the pedagogical importance of taking into account each learner's individual characteristics, needs, and abilities, as well as fostering mutual respect, empathy, social collaboration, and emotional resilience within an inclusive learning environment. Furthermore, the article analyzes the development of prospective teachers' competencies in self-awareness, emotion management, responsible decision-making, effective communication, and the development of social relationships.

Key words: inclusive education, SEL, social and emotional learning, prospective teachers, professional training, social competence, emotional intelligence, teaching methodology, empathy, reflection, equal opportunities.

Аннотация: В данной статье освещаются социальные и методические аспекты проблемы подготовки будущих учителей к эффективному использованию подхода социально-эмоционального обучения (SEL – Social and Emotional Learning) в условиях инклюзивного образования. Обосновывается педагогическая значимость учёта индивидуальных особенностей, потребностей и возможностей каждого учащегося, а также развития взаимного уважения, эмпатии, социального взаимодействия и эмоциональной устойчивости в инклюзивной образовательной среде. Кроме того, анализируются вопросы формирования у будущих учителей компетенций, связанных с самосознанием, управлением эмоциями, ответственным принятием решений, эффективной коммуникацией и развитием социальных взаимоотношений.

Ключевые слова: инклюзивное образование, SEL, социально-эмоциональное обучение, будущий учитель, профессиональная подготовка, социальная компетентность, эмоциональный интеллект, педагогическая методика, эмпатия, рефлексия, равные возможности.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni rivojlantirish, barcha o'quvchilar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish hamda ularning individual ehtiyojlarini hisobga olish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'limning samaradorligi nafaqat ta'lim muassasalarida zarur sharoitlarni yaratishga, balki pedagoglarning kasbiy, psixologik va ijtimoiy-emotsional tayyorgarligiga ham bevosita bog'liq. Shu jihatdan bo'lajak o'qituvchilarni turli ehtiyoj va imkoniyatlarga ega o'quvchilar bilan samarali ishlashga tayyorlash, ularda empatiya, emotsional barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL - Social and Emotional Learning) yondashuvi o'quvchilarning o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish, boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish, hamkorlikda faoliyat yuritish hamda mas'uliyatli qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Mazkur yondashuv inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlashga asoslangan ta'lim muhitini shakllantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Biroq ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning SEL yondashuvi bo'yicha nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini izchil rivojlantirishni talab etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim jarayonida SELdan foydalanishga tayyorlash masalasini ikki o'zaro bog'liq qatlamda ko'rib chiqish mumkin: ijtimoiy qatlam va metodik qatlam. Ijtimoiy qatlam inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, oila va mahalla hamkorligi hamda o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi bilan bog'liq bo'lsa, metodik qatlam bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, ta'lim mazmuni, pedagogik yondashuvlar va amaliy faoliyatni tashkil etish masalalarini qamrab oladi.

Tadqiqotning obyekti – bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni.

Tadqiqotning predmeti – bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limda ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL) yondashuvidan foydalanishga tayyorlashning ijtimoiy va metodik jihatlari.

Tadqiqotning maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim jarayonida SEL yondashuvidan samarali foydalanishga tayyorlash muammosining ijtimoiy va metodik qatlamlarini tahlil qilish hamda ularning o'zaro bog'liqligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash.

Tadqiqotning vazifalari – inklyuziv ta'lim sharoitida SEL yondashuvining pedagogik ahamiyatini yoritish, bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini asoslash, kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi mavjud ijtimoiy va metodik muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga xizmat qiluvchi pedagogik imkoniyatlarni tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoning ijtimoiy qatlami jamiyatning inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoji va pedagog kadrlar tayyorgarligi o'rtasidagi nomuvofiqlik bilan belgilanadi. Davlat siyosati inklyuziv qamrovni tez sur'atlarda kengaytirmoqda, xalqaro majburiyatlar esa inklyuziv ta'limning sifatini, ya'ni bolaning faqat sinfda bo'lishini emas, balki u yerda o'zini xavfsiz, qabul qilingan va qadrlangan his qilishini talab qilmoqda. Shu bilan birga, bugungi bolalar va o'smirlar orasida xavotir, emotsional zo'riqish, raqamli muhit bilan bog'liq ijtimoiy muammolar ortib bormoqda. D. Vang va Z. Ishoqning tizimli tahlilida ham oliy ta'lim talabalari orasida ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarning o'sishi, ish beruvchilar tomonidan esa emotsional intellekt va shaxslararo muloqot ko'nikmalariga talabning ortib borayotgani qayd etiladi.[1] Demak, bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy-emotsional kompetentligi ikki tomonlama ahamiyatga ega: u o'quvchilarning, jumladan, alohida ehtiyojli o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash vositasi bo'lish bilan birga, o'qituvchining o'z kasbiy barqarorligi va "kasbiy kuyish"dan himoyalanish omili hamdir.

Muammoning ijtimoiy qatlamida milliy madaniy omillar ham muhim o'rin tutadi. O'zbek jamiyatida oila va mahalla bolaning ijtimoiylashuvida an'anaviy ravishda markaziy rol o'ynaydi. Bu inklyuziv ta'lim uchun katta resurs: mahalla alohida ehtiyojli bolalarni aniqlash, oilalarni qo'llab-quvvatlash, stereotiplarni kamaytirish va bolani jamoa hayotiga jalb etishda maktabning tabiiy hamkori bo'lishi mumkin. Biroq ayni paytda "boshqalar nima deydi" degan xavotir, nogironlikni yashirishga moyillik va bolaga haddan tashqari himoyachi munosabat kabi omillar ham inklyuziyaga to'sqinlik qiladi. Bunday vaziyatda o'qituvchi faqat bola bilan emas, balki uning oilasi, sinfdoshlarining ota-onalari va mahalla vakillari bilan ham emotsional jihatdan nozik muloqot olib borishi kerak. Bu esa xorijiy SEL modellarini milliy madaniy kontekstga moslashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Muammoning metodik qatlami pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi tayyorlash mazmuni, shakl va usullari bilan bog'liq. Mavjud tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlash asosan "Inklyuziv ta'lim", "Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika", "Maxsus pedagogika" kabi fanlar doirasida, nazariy bilimlarni berish shaklida amalga oshiriladi. Sh.E. Toxtiyarova boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'limga tayyorlash muammosini tadqiq etib, o'qituvchining inklyuziv ta'limga tayyorgarligini metodik bilimlar, malakalar, faoliyat, qadriyatlar va shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida tavsiflaydi hamda unda kasbiy va psixologik tayyorgarlik birligini ajratadi.[2] Psixologik tayyorgarlik tarkibida turli rivojlanish buzilishlariga ega o'quvchilarni

1 Wang D., Ishak Z. Unveiling the Implementation of Social-Emotional Learning among College Students: A Systematic Literature Review // International Journal of Learning, Teaching and Educational Research. – 2025. – Vol. 24, № 5. – P. 376–399. DOI: 10.26803/ijlter.24.5.20.

2 Toxtiyarova Sh.E. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'limga tayyorlashning pedagogik-korreksion strategiyalarini takomillashtirish: ped. fan. dok. (DSc) diss. – Toshkent: TDPU, 2024. – B. 16–22.

emotsional qabul qilish va o‘z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi alohida ko‘rsatilgani tadqiqotimiz uchun muhim nazariy tayanch bo‘ladi. Biroq ushbu va boshqa milliy tadqiqotlarda pedagogning psixologik tayyorgarligi SEL ramkasi asosida tizimli ravishda ishlab chiqilmagan.

Xalqaro tadqiqotlar ham shunga o‘xshash muammoni qayd etadi. P. Selvakumar va hammualliflari bakalavriat bosqichidagi pedagogik ta’lim dasturlarida SELni joriy etishning asosiy to‘siqlari sifatida kognitiv ko‘nikmalarni emotsional kompetensiyalardan ustun qo‘yuvchi an’anaviy yondashuvlar, vaqt yetishmovchiligi va o‘quv rejasining haddan tashqari yuklanganligini, shuningdek, professor-o‘qituvchilarning o‘zlari SEL bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega emasligini ko‘rsatadi.[3]

X. Elayan esa SEL o‘quv dasturini amalga oshirishga pedagoglarni tayyorlash bo‘yicha tadqiqotida o‘qituvchilar dasturni o‘quvchilar bilan qo‘llashdan oldin maxsus tayyorgarlikdan o‘tishni, tayyorgarlikni hamkasblar bilan birgalikda olishni va bir o‘quv yilida faqat bitta yirik maktab tashabbusini joriy etishni afzal ko‘rishini aniqlagan.[4] Bu natijalar SELni amalga oshirish uchun pedagogning oldindan, tizimli va hamkorlikka asoslangan tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Muammoning metodik qatlamida quyidagi ziddiyatlar ajralib turadi:

- davlat siyosatida inklyuziv ta’limning ijtimoiy-emotsional maqsadlari belgilangani va pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bu maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan maxsus tayyorlash mazmunining yetarli emasligi o‘rtasidagi ziddiyat;
- inklyuziv sinflarda ijtimoiy-kommunikativ va emotsional qiyinchiliklarga ega o‘quvchilar ulushining yuqoriligi va bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda asosan defektologik-korreksion bilimlarga urg‘u berilishi o‘rtasidagi ziddiyat;
- SEL bo‘yicha jahon tajribasida to‘plangan boy ilmiy-metodik salohiyat va uning milliy madaniy kontekstga, xususan, oila va mahalla institutlariga moslashtirilmaganligi o‘rtasidagi ziddiyat;
- bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik amaliyot davrida inklyuziv sinflarga tyutor sifatida jalb etilishi huquqiy jihatdan ta’minlangani va ularning bunday amaliyotga ijtimoiy-emotsional jihatdan tayyorlanmaganligi o‘rtasidagi ziddiyat;
- o‘qituvchining o‘quvchilarda SEL kompetensiyalarini rivojlantirishi talab etilishi va bo‘lajak o‘qituvchining o‘z ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirishga oliy ta’lim jarayonida maqsadli e’tibor qaratilmasligi o‘rtasidagi ziddiyat.

Ushbu ziddiyatlar bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim jarayonida SELdan foydalanishga tayyorlashni alohida ilmiy-metodik muammo sifatida tadqiq etish zarurligini asoslaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim sharoitida ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) yondashuvidan foydalanishga tayyorlash muammosini o‘rganish uning ijtimoiy va metodik qatlamlari o‘zaro uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy qatlam jamiyatda inklyuziv ta’limga bo‘lgan ehtiyojning ortishi, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, teng imkoniyatlarni ta’minlash hamda oila va mahalla bilan hamkorlikni rivojlantirish zarurati bilan tavsiflanadi. Metodik qatlam esa bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni amaliy pedagogik faoliyatga tayyorlash masalalarini qamrab oladi.

Mazkur qatlamlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish bo‘lajak o‘qituvchilarning inklyuziv ta’limga tayyorgarligini faqat nazariy bilimlar bilan cheklamasdan, emotsional barqarorlik, empatiya, samarali muloqot va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalari bilan uyg‘un holda rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi. Shu asosda tadqiqot muammosining asosiy yo‘nalishlari ajratilib, ularning bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligiga qo‘yadigan talablari tizimlashtirildi.

Muammoning ijtimoiy va metodik qatlamlari o‘rtasidagi bog‘liqlik 1-jadvalda umumlashtirildi.

3 Selvakumar P., Neena P.C., Garg S., Gupta S., Karunakaran N.B., Manjunath C.T.C. Social and Emotional Learning in Undergraduate Teacher Education Programs // Teacher Education in the Era of Social-Emotional Learning. – IGI Global Scientific Publishing, 2025. – P. 21–48. DOI: 10.4018/979-8-3693-9271-3.ch002.

4 Elayan H. The Preparation of Educators to Implement an SEL Curriculum: Doctoral dissertation (Ed.D.). – Chicago: National Louis University, 2023. – 140 p.

1-jadval: **Tadqiqot muammosining ijtimoiy va metodik qatlamlari**

Qatlam	Muammoning namoyon bo‘lishi	Bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligiga talab
Me’yoriy-huquqiy	SELga oid maqsadlar belgilangan, mexanizmlar konkretlashtirilmagan	Normativ talablarni metodik harakatlarga aylantira olish
Ijtimoiy-demografik	Inklyuziv qamrovning tez kengayishi; kadrlar yetishmovchiligi	Oliy ta’lim bosqichidayoq inklyuziv faoliyatga tayyorlanish
Ijtimoiy-psixologik	O‘qituvchilarning inklyuziyaga nisbatan ehtiyotkor munosabati; stereotiplar	Ijobiy kasbiy pozitsiya, empatiya va emotsional barqarorlik
Madaniy	Oila va mahallaning ta’sirchan roli; nogironlikka oid xavotirlar	Oila va mahalla bilan emotsional jihatdan nozik hamkorlik
Mazmuniy-metodik	Tayyorlash mazmunida defektologik bilimlar ustunligi	SEL kompetensiyalarini inklyuziv kontekstda qo‘llash
Amaliy	Talabalarning tyutor sifatida amaliyotga jalb etilishi	Real ijtimoiy-emotsional vaziyatlarni boshqarish tajribasi

1-jadval ma’lumotlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limda SEL yondashuvidan foydalanishga tayyorlash ko‘p qirrali pedagogik jarayon hisoblanadi. Jumladan, me’yoriy-huquqiy qatlamda belgilangan maqsadlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish uchun pedagoglarning tegishli metodik kompetensiyalarini rivojlantirish zarur. Ijtimoiy-demografik qatlam esa inklyuziv ta’lim qamrovining kengayishi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ahamiyatini oshiradi.

Ijtimoiy-psixologik va madaniy qatlamlar o‘qituvchining shaxsiy sifatlari hamda kommunikativ kompetensiyalariga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Xususan, empatiya, emotsional barqarorlik, o‘zaro hurmat va hamkorlik ko‘nikmalari inklyuziv ta’lim muhitida ijobiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Oila va mahalla bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish esa o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mazmuniy-metodik va amaliy qatlamlar tahlili bo‘lajak o‘qituvchilarning nazariy bilimlarini real pedagogik vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi. Bunda SEL yondashuviga asoslangan amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, refleksiya va hamkorlikdagi faoliyat shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuvlar bo‘lajak pedagoglarning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish va turli ijtimoiy-emotsional vaziyatlarda asoslangan qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam berishi mumkin.

Shunday qilib, tahlil natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limda SEL yondashuvidan foydalanishga tayyorlashning ijtimoiy va metodik qatlamlarini o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarurligini asoslaydi. Ushbu yo‘nalishlarni uyg‘unlashtirish pedagogik ta’lim mazmunini takomillashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularning inklyuziv ta’lim sharoitidagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim jarayonida SELdan foydalanishga tayyorlash ijtimoiy-metodik muammo sifatida quyidagicha tavsiflanadi. U jamiyatning har bir bolani teng va to‘laqonli ishtirok etadigan ta’lim muhitiga bo‘lgan ijtimoiy buyurtmasidan kelib chiqadi; xalqaro va milliy normativ hujjatlarda belgilangan, biroq metodik jihatdan to‘liq ta’minlanmagan maqsadlarga tayanadi; pedagog kadrlar tayyorlash tizimining an’anaviy, asosan bilimga yo‘naltirilgan modeli bilan inklyuziv amaliyotning ijtimoiy-emotsional talablari o‘rtasidagi nomuvofiqlikda namoyon bo‘ladi. Bu muammoni hal qilish bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligining psixologik-metodik yo‘nalishlarini aniqlashni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Toxtiyarova Sh.E. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv ta’limga tayyorlashning pedagogik-korreksion strategiyalarini takomillashtirish: ped. fan. dok. (DSc) diss. – Toshkent: TDPU, 2024. – B. 16–22.
2. Selvakumar P., Neena P.C., Garg S., Gupta S., Karunakaran N.B., Manjunath C.T.C. Social and Emotional Learning in Undergraduate Teacher Education Programs // Teacher Education in the Era of Social-Emotional Learning. – IGI Global Scientific Publishing, 2025. – P. 21–48. DOI: 10.4018/979-8-3693-9271-3.ch002.
3. Elayan H. The Preparation of Educators to Implement an SEL Curriculum: Doctoral dissertation (Ed.D.). – Chicago: National Louis University, 2023. – 140 p.
4. Wang D., Ishak Z. Unveiling the Implementation of Social-Emotional Learning among College Students: A Systematic Literature Review // International Journal of Learning, Teaching and Educational Research. – 2025. – Vol. 24, № 5. – P. 376–399. DOI: 10.26803/ijlter.24.5.20.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.